

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024. I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

URAZOV MANSUR MUSURMANOVICH

**TAYYOR KIYIMLAR BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGINI
OSHIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Urazov Mansur Musurmanovich

Tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda maketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish

Уразов Мансур Мусурманович

Совершенствование использования маркетинговых исследований в повышении конкурентоспособности на рынке готовой одежды.....

Urazov Mansur Musurmanovich

Improving the use of marketing research in increasing the competitiveness of the ready-made clothing market.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4548 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent amaliy fanlar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Rustamov Narzillo Istamovich**
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Ochilov Akram Odilovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jalilov Jamshid G‘anijonovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Etakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11 uy. Tel.:99 865 221-29-14; e-mail:buxdu_rektor@buxdu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11 uy. Tel.:99 865 221-29-14; e-mail:buxdu_rektor@buxdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil _____dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi)

O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

B.N. Navro‘z-zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tayyor kiyimlar sanoatining rivojlanishi so‘nggi 10 yilda o‘rtacha 3 foizdan ortiq o‘sd¹, ularning savdosi 2023 yilda 673 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi². Hozirda jahon tovarlar savdosining 5 foizini, sanoat mahsulotlari eksportining 7 foizini tayyor kiyimlar tashkil etmoqda. Jahonda tayyor kiyimlarning 26 foizi elektron savdo orqali sotilmoqda. Tayyor kiyimlar tashqi savdosining 75 foizi Xitoy, Hindiston, Turkiya, Koreya, Bangladesh, Vetnam va Indoneziya kabi mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda³. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan tayyor kiyimlar ishlab chiqarish korxonalarida marketing strategiyalarini rivojlantirish va marketing tadqiqotlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Dunyoda marketing sohasidagi tadqiqotlar asosan tayyor mahsulotlarni sotish bo‘yicha zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqishga, yangi mahsulot brendlari yaratish va ularni targ‘ib qilishga qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar tayyor kiyimlarni iste‘molchilar uchun har tomonlama qulay qilishga yo‘naltirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda keyingi yillarda marketing tadqiqotlari iste‘molchilar bilan elektron so‘rovnomalar o‘tkazib, ularning tayyor kiyimlarni sifatiga munosabatlarini o‘rganishga, tayyor kiyimlarning elektron savdosini rivojlantirishga, iste‘molchilar uchun qulay platformalarni yaratishga qaratilmoqda. Yangi brendlari va logotiplari yaratish borasidagi izlanishlar chuqurlashib bormoqda.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini har tomonlama takomillashtirishga qaratilmoqda. Jumladan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish, to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun‘iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, “Yangi O‘zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash⁴ va mazkur tadqiqot sohasiga tegishli boshqa bir qator vazifalar belgilanib, ular bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5285-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son “Paxta to‘qimachilik klasterlari

¹https://insights.made-in-china.com/ru/2024-Global-Fashion-Market-Data-Report_PtTaLfbAmQDw.html.

²WTO. International Trade Statistics. 2024. URL: <http://www.wto.org>

³ WTO. World Trade Statistical Review. 2017. p 120-121/ https://www.wto.org//wts2024_e.pdf

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqotning natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligining xususiyatlarini tadqiq qilishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo'nalishidir. Bu borada Mboya J, Cline W, Doeringer P, Crean S, Dickerson K. G, Nordas H. K, Verma S, Xiajun A, Juyoung Lee, Dorothe'e H, Mayukh D. kabilarning ilmiy ishlari klassik ishlarga aylangan⁵. Sanab o'tilgan olimlarning iqtisodiyot faniga qo'shgan salmoqli hissalariga qaramay, ularda tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha marketing tadqiqotlarini muvofiq amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yetarlicha inobatga olinmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Ye.Evgenivech, A.Stasura, Yu.Filyukov, I.Prazyan, T.Fradina, S.Genova singari olimlar ⁶ tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini baholashning turli usullaridan foydalanish hamda marketing strategiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Qayd etilgan ishlarda raqobatbardoshlikni marketing tadqiqotlari asosida oshirishning

⁵Mboya J. Determinants of Competitive Advantage in the Textile and Apparel Industry in Tanzania: The Application of Porter's Diamond Model. *British Journal of Economics, Management&Trade* 7(2): 128-147, 2015; Cline W. The future of international trade in textiles and apparel. Washington: In.*International Economics*. 1992. 225.; Doeringer P., Crean S. Can fast fashion save the U.S. apparel industry. *Socio-Economic Review*, 4(3), 2006. 353–377.; Dickerson K.G. Textiles and apparel in the global economy. 3rd ed. NJ: M\$P–Hall.; Nordas H. K. (2004). The global textile and clothing industry post the agreement on textiles and clothing. *World and I*, 7.; Verma S. Export competitiveness of Indian textile and garment industry. *Indian Council for Research on International Economic Relations. Working paper No. 2002. p 94.*; Juyoung Lee. (2013) Competitiveness of textile and apparel industries in the United States and Japan. Iowa State University. Digital Repository@ISU. Dissertations; Xiajun A, Dorothe'e H. Assortment planning for vertically differentiated products. *Production and Operations Management Society*. Vol. 21, No. 2, March–April 2012, pp. 253–275; Mayukh D. Brand vulnerability to product assortments and prices. *Journal of Marketing Management*, 2013 Vol. 29, Nos. 7–8, 735–754;

⁶Стацупра А.И. Формирование и развитие конкурентоспособности предпринимательской структуры на рынке текстильной продукции. Дис. на соис. уч. степ. к.э.н. – СПб. 2009; Филюков Ю.К. Разработка механизма управления конкурентоспособностью предприятий легкой промышленности на основе совершенствования методических подходов к её оценке и регулированию. Дис. на соис. уч. степ. к.э.н. – СПб. 2010; Празян И.В. Маркетинговое обеспечение конкурентоспособности предприятий легкой промышленности. Дис. на соис. уч. степ. к.э.н. – Волгоград, 2007; Фрадина Т.И. Методология и методы управления конкурентоспособностью предприятий легкой промышленности в условиях глобализации экономики. Дис. на соис. уч. степ. д.э.н. – СПб, 2010; Генова С. Оптимизация процесса планирования ассортимента продукции в рамках маркетинговой деятельности предприятия. Дис. на соис. уч. степ. д.э.н. – Кишинев, 2006.

tizimlashgan tahlillari va ichki bozorni himoyalashga qaratilgan strategiyalarni belgilash muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘zbekistonda sanoat korxonolari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishning umumiy jihatlari I.Iskandarov, S.S.G‘ulomov, Yo.A.Abdullaev, A.Soliev, M.S.Qosimova, A.Sh.Bekmurodov, O.X.Xamidov, B.N.Navruz-zoda, M.R.Boltabaev, R.S.Muratov, D.Sh.Yavmutov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rsatib berilgan⁷. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamiga qaramay, hozirgi O‘zbekistonning mahalliy va jahon bozorlarida tayyor kiyimlar raqobatbardoshligini oshirish omillarini tadqiq etish, marketing tadqiqotlaridan foydalanish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, assortiment strategiyalarini belgilash, moda industriyasini rivojlantirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent amaliy fanlar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №OT-F1-154 “Milliy iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishining yalpi ichki mahsulot o‘shishiga ta‘sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini marketing tadqiqotlari asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda marketing tadqiqotlari va uning zamonaviy hususiyatlarini ilmiy tadqiq etish;

“Boboshbek” savdo va ishlab chiqarish majmuasining mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

marketing tadqiqotlari asosida iste‘molchilarning mahalliy va xorijiy tayyor kiyimlar iste‘moliga cheklangan moyilliklarini aniqlash hamda aholining mahalliy tayyor kiyimlar iste‘moliga talabini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

tayyor kiyimlarning moda industriyasini rivojlantirish asosida mahalliy kiyimlar brendlarini yaratish va assortimentni kengaytirishning yetakchilik strategiyasi takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

tayyor kiyimlarning moda industriyasini rivojlantirish asosida mahalliy kiyimlar brendlarini kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

⁷ Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Ташкент: ТГЭУ, 2006. – 112 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: дисс. канд. экон. наук. – С.: СамИСИ, 2006. – С.155.; Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: ТДИУ, 2005.–35 б.; Д.Ш.Явмутов. Ўзбекистонда “яшил” иктисодиётга ўтиш: истиқбол йўналишлар ва устувор вазифалар. Электрон Международный научно образовательный электронный журнал “Образование науки и инновационные идеи в мире”. №10, Часть-2, декабрь, 2022. – Б. 159-168. Муратов Р.С. Ўзбекистон қишлоқ аҳолиси истеъмол учун энгил саноат маҳсулотлари ассортиментини шакллантиришнинг регионал аспекти. 08.00.13–«Маркетинг» ихтисослиги. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2006. – 200 б.

yon-atrofdagilar bilan “musobaqada yashash” samarasi, ko‘pchilikka ergashish samarasi, snob samarasi va Veblen samarasi kabi omillar orqali marketing strategiyalarini takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish; 2030 yilgacha tayyor kiyimlarni sotish hajmining oshishini prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasidagi tayyor kiyimlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini, jumladan, “Boboshbek” savdo va ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini marketing tadqiqotlari asosida takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda abstrakt-mantiqiy mushohada, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, normativ va pozitiv tahlil, ko‘p omilli korelyatsion ekonometrik tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tayyor kiyimlar bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash uslubiyoti mahsulot bozorini marketing tadqiqotlari orqali tartibga solishga asoslanuvchi PMR (Produkt market regulation) tizimini amaliyotga joriy qilish orqali takomillashtirilgan;

tayyor kiyimlar va uy tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi nufuzli xalqaro brendlar bilan mahalliy korxonalarda “franchayzing” va “outsourcing” asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha brendlar buyurtmalarini joylashtiruvchi “sourcing” kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda ikki-uch smenali ish rejimida tikish faoliyati samaradorligini oshirishda revolver kreditlar taqdim etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda savdo aylanmasi va eksportni rivojlantirish orqali 2030 yilgacha tayyor kiyimlar sotish hajmi oshirishining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ilmiy tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, tayyor kiyimlar sanoatiga marketing tadqiqotlari natijalari ilmiy faoliyat yangiligini targ‘ib qilishdan iborat bo‘lib, tayyor kiyimlar bozorida marketing usullarini joriy etish bo‘yicha uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu tavsiyalar marketingni targ‘ib qiluvchi yondoshuvlardan oqilona foydalanish muayyan bozor muammolarini hal qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika va ekonometrika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgani va qo'llanilgani bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar tarmoqning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, unda ishlab chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlar to'qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha strategik va kompleks dasturlarni ishlab chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonlarini boshqarish usullari va modellari, ularning rivojlanishiga xos xususiyatlar tarmoq korxonalarini, tegishli vazirlik va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarmoqni yanada rivojlantirishga oid kompleks dasturlarni shakllantirish va ishlab chiqishda strategik mo'ljallar va ustuvor vazifalarni aniqlash imkonini beradi hamda "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatida va boshqa manfaatdor tuzilmalarda istiqbolli dastur va rejalarni ishlab chiqishda, tadqiqot natijalaridan tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'quv adabiyotlari ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

tayyor kiyimlar bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash uslubiyoti mahsulot bozorini marketing tadqiqotlari orqali tartibga solishga asoslanuvchi PMR (Produkt market regulation) tizimini amaliyotga joriy qilish orqali takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanidagi "Boboshbek" savdo ishlab chiqarish majmuasining faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025 yil 22 maydagi №03/25-1069 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash uslubiyotini takomillashtirish taklifining amalga oshirilishi natijasida Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani "Boboshbek" ishlab chiqarish va savdo kompleksida tayyor kiyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 2023 yilda 7,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,6 % foizni tashkil etgan, ishlab chiqarish hajmi o'sishi esa 216,6 mlrd. so'mni tashkil etgan;

tayyor kiyimlar va uy tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi nufuzli xalqaro brendlar bilan mahalliy korxonalarda "franchayzing" va "outsourcing" asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha brendlar buyurtmalarini joylashtiruvchi "sourcing" kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslab berish bo'yicha berilgan takliflar ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025 yil 22 maydagi №03/25-1069 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tayyor kiyimlar va uy tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi

nufuzli xalqaro brendlar bilan amalga oshirish taklifi yuzasidan “Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo kompleksida majmuasi tomonidan jami 8 ta loyiha taqdim etilgan bo‘lib, shundan 7 ta loyiha amalga oshirilgan. Loyiha samarasi sifatida ishlab chiqarish hajmida o‘shishi 50 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 20% miqdorda foyda olishga muvaffaq bo‘lingan;

tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda ikki-uch smenali ish rejimida tikish faoliyati samaradorligini oshirishda revolver kreditlar taqdim etish maqsadga muvofiqligi asoslash bo‘yicha berilgan tavsiyalar “O‘zqimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanidagi “Boboshbek” savdo ishlab chiqarish majmuasining faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil 22 maydagi №03/25-1069 sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarishda ikki-uch smenali ish rejimida tikish faoliyati samaradorligini oshirish takliflarining kiritilishi natijasida “Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo kompleksida 2024 yilda tayyor mahsulotlar eksporti ip kalavaning 36,5 foizini, gazlamaning 22,8 foizini tashkil qilgan. Zamonaviy yigiruv mashinalari daqiqada 100 ming aylanish tezligida ishlagan, to‘qimachilik dastgohlari uchun mato kengligi 150 sm yoki undan ko‘p kenglikni tashkil etgan. Korxonadagi zamonaviy to‘qimachilik mashinalari daqiqada 700 aylanish tezligida ishlashiga erishilgan;

tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda savdo aylanmasi va eksportni rivojlantirish orqali 2030 yilgacha tayyor kiyimlar sotish hajmi oshishining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqish bo‘yicha takliflar “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanidagi “Boboshbek” savdo ishlab chiqarish majmuasining faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil 22 maydagi №03/25-1069 sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflar asosida tayyor kiyimlar bozorining savdo aylanmasi va eksporti “Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo kompleksida 2024 yilda ishlab chiqarish hajmi 4002 dona mahsulotni tashkil etgan bo‘lsa, 2030 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 3,4 barobarga oshishi va 13710 donaga yetishi prognoz qilingan. Bunday o‘shish dinamikasiga korxonaning eksport bozoridagi faoliyatini kengaytirish va savdo hamkorligini mustahkamlash tadbirlari orqali erishilishi belgilab berigan, belgilangan prognozlardan kelib chiqqan holda korxonani 2030 yilgacha rivojlanish strategiyasi va uning yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining sinovdan o'tishi yoritib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda marketing tadqiqotlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tayyor kiyimlar bozorida marketing faoliyati rivojlanishining ilmiy va nazariy asoslari, tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishda marketing tadqiqotlari va uning tamoyillari, tayyor kiyimlar bozorida marketing tadqiqotlarini qo'llashning xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan.

Dissertatsiya ishida muallif marketing tadqiqotlari, raqobat va raqobatbardoshlik tushunchalarini yoritib bergan. Mamlakatimizda marketing tadqiqotlarini qo'llash asosida tayyor kiyimlar raqobatbardoshligini ta'minlash, tayyor kiyimlar bozori samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'llardan biri hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari marketing muhiti haqida ma'lumot beradi va bozordagi muammolarni aniqlashga yordam beradi.

Marketing tadqiqotlarining maqsadi marketing qarorlarini qabul qilish uchun axborot-tahliliy bazani yaratish va shu bilan ular bilan bog'liq noaniqlik darajasini kamaytirish hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarini muammoni aniqlash va muammoni hal qilish uchun olib borilgan tadqiqotlar sifatida tasniflash muhim hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari umumiy axborotlar tizimining ajralmas qismi bo'lib, marketing tadqiqotlari bozordagi talab va taklifni o'rganishdan kelib chiqqani holda, u quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

ilmiylik, tadqiq qilinayotgan bozor jarayonlarini ilmiy asoslar va obyektiv olingan ma'lumotlar asosida tushuntirish va bashorat qilish, shuningdek, hodisa va jarayonlarni rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;

izchillik, ya'ni hodisani tashkil etuvchi alohida tarkibiy qismlarni taqsimlash, ierarxik bog'lanish va bo'ysunishning mavjud bo'lishi;

murakkablik, ya'ni hodisa va jarayonlarni yaxlitligi, o'zaro aloqadorligi va rivojlanishini o'rganish;

ishonchlilik, ya'ni ularni to'plash va qayta rivojlantirishning ilmiy tamoyillarini ta'minlash, baholashda xolislikka yo'l qo'yimaslik, diqqat bilan nazorat qilish, ilmiy tadqiqot vositalaridan foydalangan holda tegishli ma'lumotlarni olish;

obyektivlik, ya'ni u yoki bu hodisani o'lchashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni hisobga olish, faktlarni oldindan belgilangan sxemaga moslashtirmaslik va ularni izohlashda ehtiyotkor bo'lish talabi;

samaradorlik ya'ni, belgilangan maqsadlarga erishish natijalarning xarajatlar bilan mutanosibligidir.

Tayyor kiyimlar bozorida marketing tadqiqotlari korxonalar uchun muvaffaqiyatli marketing strategiyasini yaratishda juda muhim rol o'ynaydi. Bozorda olib borilgan yaxshi marketing tadqiqotlari korxonaga mavjud imkoniyatlar va tahdidlarni tushunishga yordam beradi, strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Marketing tadqiqotlari bir martalik harakat bo'lmay, balki aniq natijaga erishish uchun ma'lum ketma-ket harakatlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladigan tizimli jarayondir.

O'zbekistonning tayyor kiyimlar bozoridagi marketing tadqiqotlari muayyan raqobatda ustunlik va salohiyatga ega hududlar uchun tayyor kiyim ishlab chiqarish sanoatini diversifikatsiya qilish orqali hududiy mutanosib rivojlanishni ta'minlash yo'nalishlarini ko'rsatib berdi.

Marketingda tovar va xizmatlar bozoridagi raqobat ko'proq o'rganiladi. Raqobat – mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiruvchi narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurash bo'lib, bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchilar orasidagi bozorni egallashi va faol harakatini ta'minlashi uchun kurashi raqobat hisoblanadi.

Raqobat va uning nazariyasi dunyodagi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilib, uning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashib bormoqda. Raqobatning nazariy asoslari va uni harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'ldi. Bunda A.Smit, D.Rikardo, F.Kene, A.Marshall, P.Buagelberg, J.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, M.Porter va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Raqobatbardoshlik bozordagi o'ziga o'xshash tovarlarga nisbatan tovarning qiymati, iste'mol qiymati va boshqa bir qator omillarga ko'ra aniqlanadi va u nisbiy tushuncha sifatida turli bozorlarda turlicha ifodalanadi. Raqobatbardoshlik ishlab chiqaruvchilar uchun bozorda o'z o'rnini egallash, tovarlarining sotish ulushini ko'paytirish va doimiy harakatda bo'lishini ifodalovchi iqtisodiy dastakdir. Raqobat va raqobatbardoshlikni tavsiflashning bayon qilingan yondashuvlari ko'rib chiqilar ekan, bu borada respublika iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan bir qator fikrlarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. M.Boltabaev tadqiqotlarida “raqobatbardoshlik – muayyan bozor sharoitida o'xshash tovarlarga nisbatan raqobatga bardosh bera olish qobiliyati” ekanligi e'tirof etilsa, Sh.Nazarov “raqobat rivojlanish darajasi bo'lib, unga ko'ra mintaqa o'z tabiiy-iqtisodiy salohiyati, raqobat ustunliklari va institutsional imkoniyatlaridan samarali foydalanishi hisobiga aholi turmush darajasi va sifatining barqaror o'sib borishini ta'minlaydi”, – degan mulohazani ilgari surgan. Bizning fikrimizcha tovar raqobatbardoshligi deganda tovarning raqobatlashayotgan tovarlarga nisbatan iste'molchilarni jalb eta olish qobiliyatining namoyon bo'lishi tushuniladi.

“Tayyor kiyimlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini baholash” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori

rivojlanishi holati, “Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo majmuasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari, aholining mahalliy va xorijiy tayyor kiyimlar iste‘moliga cheklangan moyilliklari va mahalliy kiyimlar ishlab chiqarishdan korxonalar foydasi oshishi tahlil qilingan.

Mamlakatimiz aholisini sifatli kiyim-kechak mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlashda tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda yaratilgan tayyor kiyim mahsulotlari muhim o‘rin tutadi. Respublikamizda yengil sanoatining jadal rivojlanishini ta‘minlash hamda yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, uning mahsulotlarini yirik xorijiy bozorlarga tadbiq etish chora-tadbirlarini ilgari surish, shuningdek, tayyor kiyimlarni tikish sanoatini Yangi O‘zbekistonning yetakchi va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylantish hozirgi kundagi asosiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning ekport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida mamlakatimizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish bilan birga to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravarga oshirish, to‘qimachilik sohasining eksport salohiyatini 2024 yil yakunilarga ko‘ra 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 dan 81 foizga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, loyihalar o‘stidagi ishlar olib borildi. 2023 yilda respublikamizda jami faoliyatda bo‘lgan sanoat korxonalari soni 69628 ta bo‘lib, ular faoliyat yuritayotgan korxonalarining 14,6 % ulushini tashkil etdi. Shundan, 68746 tasini kichik biznes subektlari tashkil etdi.

2023 yilda O‘zbekiston tayyor kiyimlar sanoatida kuzatilayotgan o‘shishi ko‘rsatkichlari 5,65 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2024 yil uchun iqtisodiy o‘shishning prognoz koridori 5,50% -5,75% darajasida belgilandi. 2023 yilda kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % bo‘lib, o‘tgan yilgiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1007,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi. 2024 yilda kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % bo‘lib, 2023 yilga nisbatan o‘shishi 110,3 % ni tashkil etishi va ishlab chiqarish hajmi 1275,8 mlrd. so‘mga yetishi belgilandi.

Tayyor kiyim yetishtiruvchi korxonalar uchun eng muhim ko‘rsatkich yillik ishlab chiqarish hajmi hisoblanadi. Bu ishlab chiqarish jarayonlaridan foyda olish imkonini beradi va tovar konyunkturasi yuqori yoki past o‘shish jarayonlarni ko‘rsatadi.

“Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo majmuasi kiyim-kechaklar ishlab chiqarish bilan bir qatorda aholi uchun an‘anaviy kiyim-kechaklarni sotish bilan ham shug‘ullanadi, bu importchilar talablariga javob beradi (1-jadval)

“Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo majmuasining mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili⁸

	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi	O‘rtacha narxi, bir birlik mahsulot uchun so‘m hisobida	Mahsulot qiymati, ming so‘m	Paxta-tola narxining oshish darajasi, marta
1	Paxta xomashyosi	tonna	4040	X	X	X
2	Kalava ip	kg	2200 000	48 500	106700000	1,60
3	Tarkibining 85%i paxta tolasidan iborat bo‘lgan gul bosilgan matolar	kg	2 596 000	50 100	130 059 600	X
4	Bitta ayollar ko‘ylagi uchun 2 metr mato sarfi uchun	dona	5 841 000	100 000	584 100 000	26,9
5	1 donasi uchun kamida 1 metr mato sarf bo‘ladigan erkaklar futbolkasi	dona	11682000	45 000	525690000	6,4

Umuman, “Boboshbek” savdo ishlab chiqarish majmuasi tayyor kiyimlar mahsulotlari bozori boshlang‘ich bosqichida. Biroq yengil sanoat mahsulotlari sifatining qoniqarli ekanligiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ya‘ni, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import qilinadigan mahsulotlar birinchi navbatda sifat jihatidan raqobatlashishi lozim, shu holda ichki va tashqi bozorda joy egallashga imkon tug‘iladi.

Bizga ma‘lumki, iste‘molchilar daromadining ma‘lum qismi tayyor kiyimlar xaridiga sarflanadi. Iste‘molchilar daromadni tayyor kiyimlar xaridiga sarflanishi quyidagi formula orqali ifodalanadi:⁹

$$DI_{IP} = C_{NIP} + C_{IIP} \quad (1)$$

bu yerda:

DI_{IP} – tayyor kiyimlar xaridiga sarflanadigan daromad;

C_{NIP} – mahalliy tayyor kiyimlarning iste‘moli;

C_{IIP} – import tayyor kiyimlarning iste‘moli.

Ya‘ni, iste‘molchilar tayyor kiyimlar xaridiga sarflaydigan daromadi mahalliy va import tayyor kiyimlarning iste‘moli yig‘indisidan iborat.

Iste‘molchilarning daromadlari o‘zgarishi bilan mahalliy yoki import tayyor kiyimlar iste‘moli o‘zgarishini ko‘rib o‘tamiz:

$$MPC_{NIP} = \frac{\Delta C_{NIP}}{\Delta DI} \quad (2)$$

bu yerda:

⁸ “Boboshbek” to‘qimachilik korxonasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

MPC_{NIP} – mahalliy tayyor kiyimlar iste'moliga cheklangan moyillik;

ΔC_{NIP} – mahalliy tayyor kiyimlar iste'moli o'zgarishi;

ΔDI – iste'molchilar daromadlarining o'zgarishi;

$$MPC_{IIP} = \frac{\Delta C_{IIP}}{\Delta DI} \quad (3)$$

bu yerda:

MPC_{IIP} – import tayyor kiyimlar iste'moliga cheklangan moyillik;

ΔC_{IIP} – import tayyor kiyimlar iste'molining o'zgarishi;

MPC_{NIP} va MPC_{IIP} miqdorlari iste'molchilar o'rtasida so'rov o'tkazish natijasida aniqlanadi hamda ular 0 va 1 oralig'ida bo'ladi, ya'ni:

$$0 < MPC_{NIP}, MPC_{IIP} < 1 \quad \text{yoki} \quad MPC_{NIP} + MPC_{IIP} = 1 \quad (4)$$

Bulardan kelib chiqib iste'molchilarning tayyor kiyimlar iste'moli tenglamasini keltirib chiqarish mumkin:¹⁰

$$C_{IP} = V_{NIP} \times MPC_{NIP} + V_{IIP} \times MPC_{IIP} \quad (5)$$

bu yerda:

V_{NIP} – mahalliy tayyor kiyimlar mahsulotlari hajmi;

V_{IIP} – import tayyor kiyimlar hajmi;

Iste'molchilardan so'rovnoma o'tkazib, tayyor kiyimlar iste'molida import va mahalliy tayyor kiyimlar iste'moliga moyilliklari o'rganildi. Bunda mahalliy tayyor kiyimlar iste'moliga cheklangan moyillik 60 foizni tashkil etishi aniqlandi.

Tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi yengil sanoat korxonalarining umumiy daromadi funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lishini taklif etamiz:¹¹

$$TR_I = f(L_I, Inv_I, Innov_I, Mr_I, Mg_I, Q_{IP}, Inf_I) - f(VI_{IP}, QI_{IP}, MPC_{IP}, InfI_{IP}) \quad (6)$$

Bu yerda:

TR_I – yengil sanoat korxonalarining umumiy daromadi;

L_I – yengil sanoat tarmoqlaridagi mehnat resurslari;

Inv_I – yengil sanoat korxonalariga kapital, ya'ni investitsiyalar;

$Innov_I$ – yengil sanoat korxonalariga innovatsiyalarni qo'llashdan olinadigan daromad;

Mr_I – yengil sanoat korxonalariga marketingni qo'llashdan olinadigan daromad;

Mg_I – yengil sanoat korxonalariga menejmentni qo'llashdan olinadigan daromad;

Q_{IP} – tayyor kiyim mahsulotlarining sifati;

Inf_I – tayyor kiyimlar ishlab chiqarishda axborot resurslarini qo'llashdan olinadigan daromad;

VI_{IP} – import tayyor kiyimlar hajmi;

QI_{IP} – import tayyor kiyimlar sifati;

MPC_{IP} – import tayyor kiyimlar iste'moliga cheklangan moyillik;

$InfI_{IP}$ – import tayyor kiyimlar haqidagi axborotlar.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqoridagi formula umumiy ko‘rinishda ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi mahalliy kiyimlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish omillarini qo‘llab mahsulot taklif etish funksiyasini bildirsa, ikkinchi qismi tashqi bozorlardan keltirilgan import tayyor kiyimlar omil funksiyasini bildirib, import tayyor kiyimlarga talabni ifodalaydi.

Fikrimizcha, aholini mahalliy tayyor kiyimlar iste‘moliga cheklangan moyilligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

mahalliy tayyor kiyimlar sifatini yuqori darajada oshirish;

milliy kiyimlar brendlarini yanada rivojlantirish;

tayyor kiyimlar ishlab chiqaradigan xomashyolarning tabiiy tolalaridan iboratligini kengroq targ‘ib qilish;

tayyor kiyimlarning milliy qadriyatlarga moslik darajasini oshirish;

xorijdan keladigan tabiiy bo‘lmagan tolalardan tayyorlanadigan mahsulotlarning importiga cheklovlar qo‘yish;

tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, ularga imtiyozlarni ko‘paytirish va boshqalar.

Dissertatsiyaning **“Tayyor kiyimlar bozori raqobatbardoshligini oshirishni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida tayyor kiyimlarning moda industriyasini rivojlantirish asosida mahalliy kiyimlar brendlarini yaratish va assortimentni kengaytirish yo‘llari, iste‘molchi talabining nisbiy daromadlar nazariyasi, ko‘pchilikka ergashish samarasi, snob samarasi va Veblen samarasi kabi omillarini inobatga olgan holda tayyor kiyimlarning marketing strategiyalarini takomillashtirish, tayyor kiyimlar bozorida onlayn savdoni rivojlantirish orqali tayyor kiyimlar sotish hajmi oshishining prognoz ko‘rsatkichlari yoritilgan.


Zamonaviy kiyimlar bozoridagi marketingning amaliy vazifalarini ikki yondashuvda ko‘rish mumkin. Birinchi yo‘nalish, tayyor kiyimlar dizayni xususiyatlari (ommaviy, elita, klassik va boshqa) hamda aksessuarlarining o‘zgarishlarini oldindan bilishga ilmiy yondashuvdan kelib chiqqandagina assortimentni rejalashtirish tartibi nazariyasi va amaliyoti natijalaridan iboratdir. Ushbu nazariya assortiment o‘zgarishlari va bu boradagi tadqiqot usullari majmuini shakllantiradi. Ikkinchi yo‘nalish, moda an‘anasini muntazam ravishda tadqiq etish, tahlil qilish va tasviflash, shuningdek, bir-ikki mavsumdan keyingi rivojlantirish yo‘nalishini belgilashdan iborat.

Iste‘molchilar tayyor kiyimlar garderobi shakllanishi ushbu bozorda faoliyat yuritayotgan korxonalarining faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot jarayonida garderobdagi assortiment o‘zgarishlari yengil sanoat korxonalarining assortiment siyosati bilan chambarchas bog‘liqligi va unga mos raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini shakllantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish masalasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Mamlakatimizda iste‘molchilarning tayyor kiyimlar garderobida O‘zbekiston korxonalarini uchun asosiy raqobatchilar bo‘lgan Xitoy, Turkiya, Koreya va boshqa mamlakatlarning tovarlari ulushini aniqlash bo‘yicha olib borilgan marketing tadqiqotlari ma‘lumotlari asosida strategiyalarini shakllantirish

imkoniyatlarini aniqlash yo‘nalishlari tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda modaning o‘zgarish tezligi asosiy omil sifatida kiyim assortimentining (namunasining) ishlab chiqish tezligi oshib borishiga bog‘liqligi e‘tirof etiladi. Kiyim assortimenti (bitta modeli)ni ishlab chiqish jarayoni 1970 yilda 6 oyni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda bu jarayonga 6 hafta vaqt talab etilgan. Hozirda esa ushbu jarayonga 6 soat vaqt kifoya qilmoqda. Kiyimlar chakana savdo benchmarkingining asosiy xususiyatlari ham aynan moda o‘zgarishlariga kiyim modellarini moslab borish o‘rganilishi lozim bo‘lgan asosiy masalaga aylangan. Tezkor darajada yangi mavsum uchun ishlab chiqariluvchi kiyim namunalari bo‘yicha strategiyani belgilashda quyidagi omillarga tayanishni talab etadi: bozor ma‘lumotlariga asoslangan holda aniqlangan kiyim namunasini o‘rganilgan bozorga tegishli vaqt davomida kiritish lozim. Shunga asosan, ushbu jarayonning operatsion faoliyatini 1-rasmga ko‘ra ifodalash maqsadga muvofiq.



1-rasm. Tayyor kiyimlar bozordagi assortiment tarkibining dinamiklik muammosi¹²

1-rasmga ko‘ra T – mavsumiy davr, N – chakana savdoda mavjud assortiment, S – istiqbolda taklif etiladigan barcha assortiment. Mavsum boshlanishi va joriy davrdagi assortiment o‘zgarishlarining tahlili orqali S kiyimlar assortimentining aniq to‘plamini shakllantirish asosiy muammo sifatida qaraladi va bu jarayon assortimentning tarkibiy yoki mavsumiy o‘zgarish xususiyatlarini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Assortimentning mavsumiy o‘zgarish xususiyatlarini tadqiq etishda bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, tarkibiy o‘zgarish xususiyatlariga ko‘ra marketing strategiyalarini ishlab chiqish borasida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. O‘z navbatida iste‘molchilarning kiyimlar assortimenti tarkibi va uning o‘zgarishlariga asoslangan xolda marketing strategiyalarini shakllantirish masalasi bo‘yicha tadqiqot usullarini ishlab chiqish dolzarbligini yo‘qotmagan.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Marketing tadqiqotlarida ijtimoiy omillar iste'molchilarning tayyor kiyimlarga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'liqlikka ega. Tayyor kiyimlar bozorida iste'molchilar talabiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillardan biri yon-atrofdagilarning iste'moli hisoblanadi. Iste'molchi qarorlariga ko'proq uni yon-atrofdagilarning xaridlari ta'sir etadi. Buning mohiyati shundaki, kishilar kiyimlarni xarid qilishi hozirgi vaqtda ko'proq ularning joriy daromadlariga bog'liq emas, balki yon-atrofdagilarning ayni vaqtdagi qanday kiyimlarni xarid qilayotgani bilan bog'liq. Bunga ko'ra iste'molchilar yon-atrofdagilar bilan "musobaqada yashaydilar".

Ayrim iste'molchilar ko'pchilikka taqlid qilishni yoqtiradi va ko'pchilik nimani xarid qilsa, o'shani olishni ma'qul ko'radi. Ikkinchi turdagi iste'molchilar boshqalardan ajralib turishni xohlashadi va nihoyat yana bir toifasi yuqori darajadagi turmush farovonligi ta'sirida obro'-e'tibor talab namoyishkorona iste'molni xush ko'radi. Shundan kelib chiqib, muallif tayyor kiyimlar iste'molida ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadigan talabni uch toifaga ajratgan:

1. Ko'pchilikka ergashish samarasida iste'molchi ko'pchilik va modadan ortda qolmaslikka tirishib, ko'pchilik nimani ma'qul ko'rsa shuni xarid qilishga moyil bo'ladi. Bunda uning xaridga oid hatti-harakati boshqalarning fikriga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Ko'pchilikka ergashish samarasi deganda iste'molchining umum qabul qilingan normalar ta'sirida ko'pchilik xarid qiladigan kiyimlarga talabini oshishi bilan bog'liq samara tushuniladi.

2. Snob samarasida iste'molchining atrofdagilardan ajralib turishga ishtiyoqi baland bo'ladi. Bu yerda ham uning tanlovi atrofdagilar hatti-harakatiga bog'liq, ammo bu teskari bog'liqlik. Snob samarasi boshqa insonlar shu kiyimni kiyishi ta'sirida talabda yuz beradigan teskari o'zgarishni ifodalaydi. Ya'ni, agar atrofdagilar shu kiyimga talab hajmini oshirsa, snob uni qisqartiradi yoki umuman iste'moldan voz kechadi.

3. Veblen samarasi (T. Veblen nomidan olingan) obro'-e'tibor ketidan quvib unutilmas taassurot qoldirish maqsadini ko'zlovchi namoyishkorona kiyim kiyishni nazarda tutadi. Bunda tovarning narxi ikki qismdan: real narx va obro' keltiruvchi narxdan tashkil topadi. Veblen samarasi tovarning narxi qimmatligi tufayli iste'molchi talabining oshishi bilan bog'liq samarani aks ettiradi.

Tadqiqotda "Boboshbek" to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonasining faoliyatining keyingi davrdagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda ekonometrik model tuzildi. Mazkur tadqiqotda taqsimlangan lag modelidan foydalanilib, ushbu modeli iqtisodiy tadqiqotlarda o'tgan davrlardagi ma'lumotlarning joriy davr ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu modeldan foydalanish orqali asosiy savdo hamkorlariga amalga oshirilgan eksport hajmining joriy davrdagi ishlab chiqarish hajmiga ta'siri miqdoriy baholandi. Bu esa eksport hajmi joriy davrdagi ishlab chiqarish faoliyatini tashkilashtirish bo'yicha muhim vazifani bajaradi.

Interpolyatsiya usullari, jumladan, chiziqli, parabola va yarim chiziqli interpolyatsiyalaridan keng foydalanildi. Ularning turini tanlash o'zgaruvchilarning vaqt bo'yicha o'zgarish qonuniyatiga bog'liqdir. Tadqiqotda korxonaning asosiy

iqtisodiy ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarish qonuniyatiga ko'ra, yarim chiziqli interpolatsiya usulidan foydalanildi.

Tadqiqotimizda "Boboshbek" ishlab chiqarish asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagicha belgilab oldik:

Y – mahsulot ishlab chiqarish hajmi (*natijaviy omil*), dona;

X₁ – savdo aylanmasi (*mustaqil o'zgaruvchi*), mln. AQSh dollari;

X₂ – asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport, mln AQSh doll. (*mustaqil o'zgaruvchi*);

Ekonometrik usullarning xususiyatiga ko'ra, o'zgaruvchilar logarifmlash yaxshiroq natija berishi aniqlanligi uchun tadqiqotimizda korrelyatsion-regression tahlilida korxonani asosiy o'zgaruvchilari logarifmlangandan keyin ekonometrik usullardan foydalanildi.

Ekonometrik model koeffitsientlarini Student me'zoni bo'yicha tekshirildi va ularning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Bunda har bir koeffitsientning statistik qiymatlari jadvaldagi kritik qiymatlardan ($t_{jadval}=2,3$) yuqori bo'lib, ularning tahlilda ishonchli ekanligini ko'rsatdi. Bu esa, modelda foydalanilgan o'zgaruvchilarning joriy ishlab chiqarish hajmini shakllantirishdagi rolini tasdiqladi (2-jadval).

